



## INFLATSIYANING KELIB CHIQISH SABABLARI VA UNING OLDINI OLISH USULLARI

*Toshqulova Shaxzoda Berdiyor qizi*

*SamDAQU "Iqtisodiyot" fakulteti talabasi*

**Annotatsiya .** Mazkur maqolada inflatsyaning kelib chiqish sabablari va uning iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilinadi. Inflatsiya asosan talab va taklif o'rtaqidagi nomutanosiblik, ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi, pul massasi ortishi kabi omillar natijasida yuzaga kelishi tushuntirilgan. Shuningdek, inflatsyaning turli shakllari, jumladan, talab inflatsiyasi va taklif inflatsiyasi turlari haqida ma'lumot berilgan. Maqolada inflatsiyani oldini olish va uni boshqarish usullari ham ko'rib chiqilgan. Ushbu maqola iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va inflatsiya jarayonlarini chuqur tushunish istagida bo'lgan mutaxassislar, tadqiqotchilar va talabalar uchun foydalidir.

**Kalit so'zlar.** Inflatsiya, iqtisodiyot, narx, pul, mahsulot, xarajatlar, bozor, ishlab chiqarish, talab, taklif, davlat, byudjet, muvozanat.

**Annotation.** This article analyzes the causes of inflation and its impact on the economy. Inflation arises mainly due to imbalances between supply and demand, increased production costs, and the growth of the money supply. Various types of inflation, including demand- pull inflation and cost- push inflation, are also discussed. The article examines methods to prevent and control inflation. It will be useful for specialists, researchers, and students interested ensuring economic stability and gaining a deeper understanding of inflationary processes.

**Key words.** Inflation, economy, price, money, product, costs, market, production, demand, supply, state, budget, balance.



**Аннотация.** В данной статье анализируются причины возникновения инфляции и ее влияние на экономику. Инфляция объясняется как результат дисбаланса между спросом и предложением увеличения затрат на производство роста денежной массы и других факторов. Также приведена информация о различных формах инфляции, в том числе инфляции спроса и инфляции предложения. В статье рассмотрены методы предотвращения и регулирования инфляции. Данный материал будет полезен специалистам, исследователям и студентам, стремящимся глубже понять процессы инфляции и пути обеспечения экономической стабильности.

**Ключевые слова.** Инфляция, экономика, цена, деньги, продукт, затраты, рынок, производство, спрос, предложение, государство, бюджет, баланс.

**Kirish.** Iqtisodiyotda inflatsiya va deflatsiya ikki qarama-qarshi hodisa sifatida uchraydi. Inflatsiya pul qiymatining pasayishi natijasida narxlarning oshishini anglatadi, deflatsiya esa buning aksiga, narxlarning pasayishi bilan pulning qadrining oshishini bildiradi. Ammo bu jarayonlar doimiy yoki mavsumiy bo‘lishi shart emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy tendensiyalar asosida yuz beradi. Masalan, meva va sabzvotlar narxi hosil mavsumida arzonlashadi, bunday holatni deflatsiya deb atash noto‘g‘ri bo‘ladi. Deflatsiya yoki inflatsiya haqida to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun narxlardagi o‘zgarishlarni uzoq vaqt davomida kuzatish lozim. Aslida, inflatsiya va deflatsiya jarayonlari asosiy mahsulotlar savati bo‘yicha hisoblanadi, bu savatda odatda 300 dan ortiq tovarlar kiritiladi. Zamonaviy iqtisodiyotda narxlarning barqaror oshishi kuzatiladi, chunki mutloq narxlar pasayadigan iqtisodiy tizim mavjud emas.

**Asosiy qism.** Inflatsiya, deganda narxlarning doimiy o‘sishi sababli pul qiymatining pasayishi tushuniladi. Inflatsiya sodir bo‘lganda aksariyat mahsulot va



xizmatlarning umumiylar darajasi oshadi. Natijada, pul qadrsizlanadi, ya'ni xaridor avvalgidan ko'ra ko'proq pul sarflashga majbur bo'ladi. Inflatsiya sharoitida iqtisodiyotdagi pul massasi ortadi, lekin unga mos ravishda tovar va xizmatlar hajmi oshmasa, muvozanat buziladi. "Inflatsiya" termini dastlab 1861- 1865 – yillarda Shimoliy Amerikada, so'ngra Fransiya va Germaniyada ham qo'llangan. Inflatsiya jarayoni narxlarning o'sishi, yalpi talabning yalpi taklifdan oshib ketishi, makroiqtisodiy beqarorlik natijasidir. Inflatsiya, asosan, mahsulot va xizmatlar sifatining oshmasdan narxlarining ortishi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, oltin va xorijiy valyutalarning milliy pul birligiga nisbatan qimmatlashishi ham inflatsiyaning belgilari hisoblanadi. Ishlab chiqarish hajmining talab darajasidan past bo'lishi, bozorda ehtiyojni qondira olmaydigan mahsulotlarning ko'payishi, byudjet tanqisligini qoplash maqsadida qo'shimcha pul chiqarilishi, investitsiyalarni emmisiya yo'li bilan moliyalashtirish, monopol narxlarning mavjudligi, narxlarning ortib ketish sababli odamlarning keragidan ortiq mahsulot xarid qilishi, xorijdan qiymati tushib ketgan valyutalarning mamlakatga ko'plab kirib kelishi va boshqa iqtisodiy omillar inflatsiyani keltirib chiqaradi.

Inflatsiyaning oshishi iqtisodiyotga turli ta'sirlar ko'rsatadi. Agar uning darajasi me'yordan oshsa, iqtisodiy jarayonlar izdan chiqadi. Ayniqsa, giperinflyatsiya holatida narxlar sezilarli darajada ko'tarilib, iqtisodiyotni beqaror holatga keltiradi. Inflatsiyaning ochiq va yashirin turlari mavjud. Ochiq inflatsiya bozor iqtisodiyoti sharoitida kuzatilib, narxlarning erkin o'sishi iqtisodiy muvozanatga ta'sir qiladi. Garchi bu jarayon bozor mexanizmini izdan chiqarsa ham, iqtisodiyot o'z-o'zini moslashtirishga harakat qiladi. Yashirin inflatsiya esa boshqa shaklda namoyon bo'ladi. Davlat narxlarning keskin oshishiga qarshi chora ko'rib, ularni ma'lum darajada tartibga solishga harakat qiladi. Biroq bu holat bozordagi tabiiy muvozanatni buzib, iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini pasaytirish mumkin. Narxlarning sun'iy muzlatilishi esa ishlab chiqarish



xarajatlarini oshirib, kapital oqimining kamayishiga sabab bo‘ladi. Bu esa mahsulot yetishmovchiligining va narxlarning yanada ko‘tarilishiga olib keladi. Ochiq inflatsiyaning bir necha turlari mavjud bo‘lib, ular orasida talab inflatsiyasi, harajat inflatsiyasi va tuzilma bilan bog‘liq inflatsiya ajralib turadi. Ushbu inflatsiya shakllari bevosita bozor mexanizmlari natijasida shakllanadi. Bozor sharoitida inflatsiya tabiiy ravishda vujudga keladi va muvozanat saqlanadi. Bu holatda narxlarning nisbati o‘zgarmay, harajatlarning oshishi mahsulot narxlarining ko‘tarilishiga olib keladi. Natijada, korxonalar o‘z daromadlarini saqlab qolishga harakat qiladi. Inflatsiya pul qadrsizlanishiga sabab bo‘lib, uning iqtisodiyotdagি roliga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli davlat inflatsiyaga qarshi chora- tadbirlar ishlab chiqadi, jumladan, davlat xarajatlarini kamaytirish, soliq stavkalarini oshirish, pul masassini cheklash, narxlar ustidan nazorat o‘rnatish va ortiqcha pullarni investitsiya yoki bank tizimi orqali muomaladan chiqarish kabi usullar qo‘llaniladi. Inflatsiya butun dunyodagi mamlakatlarga xos bo‘lgan iqtisodiy hodisa hisoblanadi. Inflatsiya darajasi odatda narxlar indeksiga qarab belgilanadi.

Inflatsiyaning oldini olish va nazorat qilish uchun quyidagi usullar qo‘llaniladi:

1. Pul-kredit siyosati: Markaziy banklar pul massasini nazorat qilish orqali inflatsiyani boshqaradilar. Masalan, O‘zbekiston Markaziy banki 2017-yilda inflatsiya o‘sishining oldini olish maqsadida qayta moliyalash stavkasini 9% dan 14% ga oshirgan edi. (Daryo.uz)
2. Fiskal siyosat: Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash orqali inflatsiyani nazorat qilish mumkin. Masalan, davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari mutanosib bo‘lishini ta‘minlash, mahalliy byudjetlarga qo‘sishimcha tushumlar rezervlarini topish va safarbar qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan. (Kun.uz)



3. Narxlar va daromadlarni nazorat qilish: Davlat ba‘zi hollarda narxlar va ish haqlarini nazorat qilish orqali inflatsiyani cheklashga harakat qiladi. Biroq, bu usul bozordagi tabiiy muvozanatni buzishi mumkin. (Wikipedia)
4. Taklifni oshirish: Mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishini ko‘paytirish orqali bozorda taklifni oshirish, bu esa narxlarning barqarorlashishiga olib keladi. Masalan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, to’qimachilik va qurilish sanoatida ishlab chiqarishning o’sishi ichki iste’mol bozorida taklif hajmining ortishiga xizmat qiladi. (Norma.uz)
5. Inflatsion kutilmalarni boshqarish: Aholi va biznes subyektlarining inflatsiya bo‘yicha kutilmalarini boshqarish orqali narxlarning oshishini oldini olish mumkin. Bu, asosan, markaziy bank va hukumatning ishonchli siyosati va kommunikatsiya orqali amalga oshiriladi.

### ***Xulosa .***

Inflatsiya iqtisodiyotda narxlarning umumiyligi darajasi oshishi natijasida yuzaga kelib, pulning xarid qobiliyatini pasaytiradi. Uning asosiy sabablari orasida pul massasining haddan tashqari ko‘payishi, ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi, talab va taklif o‘rtasidagi nomutanosiblik hamda tashqi iqtisodiy omillar mavjud. Inflatsiya iqtisodiyotning beqarorligiga olib kelishi mumkin, shuning uchun uni nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Inflatsiyaning oldini olish uchun pul-kredit va fiskal siyosat vositalaridan foydalanish, davlat byudjeti balansini saqlash, ishlab chiqarishni rag‘batlantirish va inflyatsion kutilmalarni boshqarish kabi chora-tadbirlar qo‘llaniladi. Markaziy bankning pul massasini nazorat qilishi va davlat tomonidan iqtisodiy islohotlarning samarali amalga oshirilishi inflatsiyani barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli, inflatsiyaga qarshi kurashda kompleks yondashuv muhim bo‘lib, bu iqtisodiy barqarorlik va aholi farovonligini ta‘minlashga yordam beradi.



**Adabiyotlar:**

1. A. O'lmasov, A. Vahobov "Iqtisodiyot nazariyasi" Toshkent 2014
2. Kun.uz
3. Daryo.uz
4. Norma.uz
5. Wikipedia